XALQ DEPUTATLARI PAXTAOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-13-117-1-25-K/25 Paxtaobod tumani

Paxtaobod tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,–24-moddalari, Budjet kodeksining 27,- 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-15-297-1-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Andijon viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 01/05/2-15-/2479-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Paxtaobod tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Andijon viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-15-297-1-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Paxtaobod tumani byudjetining 2026-yilgi daromadlari **171 548,6 mln.so‘m** va xarajatlari esa **171 548,6 mln.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Paxtaobod tumani byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **769,0 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **2 261,6 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan

vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari I.Akramov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Faxriddinov), tuman soliq inspeksiyasi (Sobirov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Usmonov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari I.Akramov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **MADUMAROV AZAMJON XXX**

Xalq deputatlari Paxtaobod tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-13-117-1-25-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Andijon viloyati Paxtaobod tumanining 2026-yil uchun mahalliy budjet daromadlari prognozi

ming so‘m

№	Daromad turlari	Jami prognoz
1	QQS solig‘i	5 538 800
2	Foyda solig‘i	660 100
3	Aylanmadan olinadigan soliq	5 287 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	84 599 000
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadlari bo‘yicha to‘lanadigan daromad solig‘i	762 000
6	Aksiz solig‘i	7 195 000
	shu jumladan:	
	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	*7 195 000*
	Alkogol mahsulotlari uchun aksiz solig‘i	
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 315 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	11 589 000
9	Jismoniy shaxslar yer solig‘i	16 047 000
10	Yuridik shaxslar yer solig‘i	8 230 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	938 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 764 400
	Ma‘lumot uchun	
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	1 951 600

13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	
14	Davlat boji	10 934 000
15	Yig‘imlar	3 799 250
16	Jarimalar	6 786 000
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	104 000
	JAMI:	**171 548 550**
1	**Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar**	**0**
	shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar	

Xalq deputatlari Paxtaobod tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-13-117-1-25-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Andijon viloyati Paxtaobod tumani mahalliy byudjeti xarajatlarining 2026-yil uchun asosiy koʻrsatkichlari

ming soʻm

№	Hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**171 548 550**
1	Maktabgacha va Maktab ta'limi boʻlimi	*57 193 497*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*2 966 400*
2	Madaniyat boʻlimi	*10 173 381*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boʻlimi	*7 310 868*
4	Sport boʻlimi	*15 139 316*
5	Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi	*2 035 560*
6	Qishloq xoʻjaligi boʻlimi	*2 918 949*
7	Irrigatsiya boʻlimi	*3 344 865*
8	Iqtisodiyot va moliya boʻlimlarini saqlash xarajatlari	*2 207 763*
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy boʻlimi Ijtimoiy koʻnikma markazlari xarajatlari	*182 400*
10	Hokimiyat	*51 274 289*
	shundan:	*0*
	Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi	*31 321 800*
	"Mahalla budjeti" jamgʻarmasi mablagʻlari	*1 442 000*
	Zahira jamgʻarmasi	*2 261 607*
11	Hokimiyat (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*1 035 627*
	shundan:	

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*162 980*
	Axborot-kutubxona markazlari	*872 647*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	18 732 035
13	Boshqa tashkilotlar	0